

2022- yil uchun Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

55 972,1

YAHM o'sish
sur'ati

104,6 %

YAHM deflyator
indeksi

112,0 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 55 972,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 4,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 112,0 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	47 760,5	55 972,1	104,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 082,7	54 217,7	104,5
mahsulotlarga sof soliqlar	1 677,8	1 754,4	107,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 082,7	54 217,7	104,5
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 129,7	19 032,9	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	12 567,4	14 232,4	106,6
sanoat	9 558,7	10 565,9	104,8
qurilish	3 008,7	3 666,5	112,7
xizmatlar	17 385,6	20 952,4	103,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 465,5	4 085,9	104,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 738,7	3 117,3	107,9
boshqa xizmat tarmoqlari	11 181,4	13 749,2	102,5



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 219,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,5	96,9
mahsulotlarga sof soliqlar	3,5	3,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35,0	35,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,2	26,3
sanoat	20,7	19,5
qurilish	6,5	6,8
xizmatlar	37,8	38,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	5,7
boshqa xizmat tarmoqlari	24,4	25,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 35,0%

Sanoat 20,7%

Qurilish 6,5%

Xizmatlar 37,8%

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 35,1%

Sanoat 19,5%

Qurilish 6,8%

Xizmatlar 38,6%

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,1 % ni, sanoat tarmog'i 19,5 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 38,6 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


2022- yil uchun YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



4,6

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi




1,2

Sanoat



0,9

Qurilish



0,8

Xizmatlar



1,4

Mahsulotlarga
sof soliqlar



0,3





YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2021- yilda – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,9 f.p. (2021- yilda – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2021- yilda – 1,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2021- yilda – 4,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilda – 0,3 f.p.)ga teng bo'ldi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,1 %), sanoatda – 104,8 % (19,5 %), qurilishda – 112,7 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 103,8 % ni (38,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 104,6 % (7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,9 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,5 % dan (25,4 %) iborat bo'ldi.



■ 2021- yil
■ 2022- yil

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM




Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Xizmatlar



2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari, xizmatlarda – 116,2 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,9 % qayd etildi.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilda kichik tadbirkorlik 37 348,4 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 32 181,8 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 68,9 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 69,8 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

